

Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2026-yil yanvar-iyul oylari uchun

- I. Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1-avgust holatiga ko'ra, Viloyatda 3260 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 821 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 25,2 %) boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 723 tasi (22,2 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 285 tasi (8,7 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga, 260 tasi (8,0 %) kiyim ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-avgust holatiga ko'ra



II. Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar-iyul oylarida viloyat korxonalari tomonidan 15134,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,4 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Surxondaryo viloyati	15 134,9	108,4
Termiz shahri	1265,3	112,4
<i>tumanlar:</i>		
Angor tumani	325,0	108,3
Bandixon tumani	268,1	117,2
Boysun tumani	238,0	122,3
Denov tumani	977,5	112,1
Jarqo'rg'on tumani	1022,6	112,7
Qumqo'rg'on tumani	1123,8	122,6
Qiziriq tumani	298,4	117,4
Muzrabot tumani	492,1	109,1
Oltinsoy tumani	213,7	110,1
Sariosiyo tumani	682,0	110,4
Termiz tumani	809,0	140,4
Uzun tumani	318,3	105,6
Sherobod tumani	1168,2	118,2
Sho'rchi tumani	555,0	108,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Termiz tumanida (8 951,2 ming so'm), Termiz shahrida (5 919,4 ming so'm), Sherobod tumanida (5 317,3 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (5 005,0 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, Termiz tumanida (136,3 %), Qumqurgon tumanida (120,1 %), Boysun tumanida (120,1 %), Sherobod tumanida (116,1 %) , Bandixon tumanida (114,2 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-iyul oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-iyul oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 13 896,4 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (91,7 %) ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 334,9 mlrd so'm (2,2 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 654,2 mlrd so'm (4,3 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 276,5 mlrd so'm (1,8 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar-iyul oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-iyul oylarida viloyatda chigitdan olingan kunjara va boshqa qattiq chiqindilar – 6 230,8 t (6,2 m. ga), temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar va to'siqlar – 3 603,3 t (6,0 m. ga) , tozalangan paxta yog'i va uning fraktsiyalari (kimyoviy modifikatsiya qilinganlaridan tashqari) - 1608,3 ming t (4,9 m. ga), soapstoklar (neytrallash jarayoni mahsuloti) - 367,0 ming t (3,4 m.ga) ko'paygan, shuningdek toshko'mir -321,4 t (22,0 % ga) ,xom neft (uglevodorodlarning tabiiy aralashmasi), jumladan bitumsimon jinslardan olingan neft-ming -30,8 t (19,3 % ga) , yirik shoxli qoramollar uchun tayyor ozuqa (ko'p komponentli aralashmalardan tashqari) -14575,0 (15,9%ga)t kamaygan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyul *	2025-yil yanvar-iyul *	2026-yil yanvar-iyul
Aroq, ming litr	79,5	3055,4	-
Paxta tolasi, tonna	15992,6	14310,0	19549,2
Paxta tolasidan yigirilgan ip, tonna	20766,0	27469,4	45183,5
Neft bitumi, ming t	28,5	24,7	19,0
Shag'al, ming t	-	165,3	419,3
Toshko'mir, ming t	337,2	411,8	321,4
Xom neft, ming t	41,7	38,2	30,8
Boshqa paxta chigiti, ming t	6,8	20,7	24,6
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t	22,5	39,4	36,6
Portlandsement, ming t	556,2	144,4	159,8

**2024-2025-yillarning yanvar-iyul oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 31,1 % (2025-yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 114,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 28,5 % (2025-yilning yanvar-iyun oylariga oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 113,5 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2025-yilning yanvar-iyul oylarida 0,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,4 % (0,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 16,3 % (26,1 %), quyi texnologiyali 81,7 % (72,5 %) ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar-iyul oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 143,9 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 1,6 m ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024 yil yanvar-iyul *	2025-yil yanvar-iyul *	2026-yil yanvar- iyul
---------------------	------------------------	------------------------	-----------------------

Elektrenergiya, mln.kvt.s	334,0	398,5	573,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	11,7	10,3	16,8

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish hajmi**


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 135,8 %. ga, qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlarda 3,9% ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyul *	2025-yil yanvar-iyul *	2026-yil yanvar- iyul
Oqova suvlarni yo'qotish,transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	4,9	20,1	27,3
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	48,2	80,1	119,1
Xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	10,4	32,8	38,3
Qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	-	6,1	23,7

**2024-2025-yillarning yanvar-iyul oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 10 094,7 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 66,7 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-iyul oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 70,6 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Surxondaryo viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik)

ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslar bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfghch5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
J. Mallayev
76 225-65-76 (7510)

Manzil:

